O'ZBЕКIСТON ZIYORAT TURIZMI BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHİYATI	1091
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	
ASOSIY KAPITALGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	1095
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1103
Daminova Madinaxon Bahromjon qizi	
TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSİYALASHDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1110
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
O'ZBЕКIСТONDA OBLIGATSİYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIY AHAMIYATI	1117
Muxammedova Zarina Murodovna	
SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIY MEХANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI	1121
Sultonov Xudoyshukur G'ayratovich	
IQTISODIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	1126
Xaydarov Ravshan Xikmatullaevich	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1131
He Xiaocu, Уркинбаев Т. А.	
РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИК СТРАН ПЕРЕХОДНОГО ТИПА	1135
Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович	
"YASHIRIN IQTISODIYOT"NING ULUSHINI QISQARTIRISHDA AUDITNING O'RNI	1140
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR.....	1146
Mu Zhendi	
TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	1156
Z.T. Bakayev	
ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....	1161
Аблаева Валентина Борисовна	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI	1169
Saparov Murod Irgashovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL.....	1173
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
"2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI"	1177
Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.	
KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	1183
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA AHOLI MIGRATSIYASI TAHLILI (2010-2024 YILLAR).....	1188
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАН	1192
Аман Тургунович Кенжабаев, Бахтияр Бадриддинович Садриддинов	
SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIY FAOLIYATNI BAHOLASH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1200
Zuxurova Nargiza Abdusattarovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IPOTEKANI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI.....	1204
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARINING TAHLILI.....	1212
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	1221
Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA EKOLOGIK HOLAT YOMONLASHUVINING TASHQI INVESTITSIYALARGA TA'SIRI.....	1228
Poyonov Jamshid	
RAQAMLI TURIZM PLATFORMALARIDA KONTENT TAHLILI HAMDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	1232
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASH TENDENSIYALARI.....	1240
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIRKULAR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1246
Utegenov Ilham Baxtiyarovich	
GO'SHT YETISHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)	1250
Otabekov Javdod Nurulla o'g'li	



O'ZBEKISTONDA TASHQI AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1256
Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF THE DEVELOPMENT OF SEPARATE SEGMENTS ... OF REGIONAL BUSINESS TOURISM	1261
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING XUSUSIYATLARI	1267
Tabayev Azamat Zaripbayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	1272
Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna	
EKOLOGIK SOLIQLARNI HISOBLASH VA UN DARISH METODOLOGIK ASOSLARINI YARATISH	1276
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY AHAMIYATI	1281
Fayziyeva Iroda Shuhrat qizi	
CAPITAL ADEQUACY AND FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN	1286
Shokhrukh Komilov	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TURIZM SOHASINI STATISTIK BAHOLASH METODOLOGIYASI	1291
Jumanova Zilola Tuychiyevna, Sur'atova Mohiraxon Shavkat qizi	
AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1296
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIY TAMOYILLARNING O'RNI	1300
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	
ENHANCING STRATEGIC MANAGEMENT IN TOURISM SERVICE ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: A SWOT-BASED ANALYSIS	1304
Mustafakulova Sitara Shukhratovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO'NALISHLARI	1310
Maxmudov Abduxalil Abduraxmon o'g'li	
O'ZBEKISTON AHOLISI JINSI NISBATINING HUDUDIY VA YOSH FARQLANISHINI STATISTIK TADQIQI	1314
Toshmatov Zoyir Xudayberganovich, Begalova Durдона Baxodirovna	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA MUHITNI YAXSHILASH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1321
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI BANDLIGINING INNOVATSION VA MOSLASHUVCHAN SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISH	1326
Umarova Gulandom Tumanovna	
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЕРСТВО В КОММУНАЛЬНОЙ СФЕРЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОПЫТА КИТАЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИИ И ВОЗМОЖНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	1330
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KONSTRUKTIV MASALANI YECHISH USLUBI	1334
Azimov Alisher, Sabirova Dildora, Tairova Nafisa	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	1338
Махмудова Наргиза Давлят кизи	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BUXGALTERIYA HISOBIDAGI TA'SIRI	1343
Mardonov Mamed Shavkatovich, Suyunov Raxmatillo Raximberdi o'g'li	
АНАЛИЗ И СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВО-ДЕЛОВОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	1347
Ахмедова Азиза Тохириевна	



MAKROIQTISODIY TEBRANISHLAR VA IQTISODIY SIKLLAR: SABABLARI VA RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	1352
Muxammedov Murod Muxamedovich	
O'ZBEKISTONDA VAZIRLIK VA IDORALARDA ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI BAHOLASH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	1356
Ibragimova Muxlisa Abdulxakimovna	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TURISTIK-REKREATSION SALOHİYATNING MAZMUNI VA ILMIY TALQINI.....	1362
Usmanova Zumrad Islamovna	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1366
He Xiaocu, Уркинбаев Т. А.	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA MOLIYAVIY JIHATLARI TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI.....	1370
Ruziyeva Dilobar Isomjonovna, No'monova Hilola Muftillo qizi	
SUG'URTA VA FOND BOZORLARI O'RTASIDAGI O'ZARO INTEGRATSIYA BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI.....	1375
Kengesbaeva Suluxan Maxsetbay qizi	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ЭКСПОРТА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ РЕГИОНА.....	1380
Тулибаева Камола	
АНАЛИЗ ЛИКВИДНОСТИ БАНКОВ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ.....	1385
Ходжаева Феруза Авазхановна	
XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO TAHLILI VA ISTIQBOLLARI.....	1389
Qurbanov Feruz Bahramovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI.....	1395
Alimova Oydin Baxtiyarovna	
OUTSOURCING: A MODERN WAY TO INCREASE THE EFFICIENCY OF ENTERPRISES.....	1402
Dauletaliyeva Aymereke Sagievna	
O'ZBEKISTONDA YUK VAGONLARINI ISHLAB CHIQRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1406
Kaydarov Ismatulla	
O'ZBEKISTONDA INNOVATSION FAOLIYATNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA INNOVATSION INFRATUZILMANING RIVOJLANISHI.....	1412
Tursunova Nazokat Tolibjonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA AKTIVLAR SIFATINI MUSTAQIL BAHOLASH (AQR) MARKAZINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI.....	1418
Suxrob G'aybulloev	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING BUDJET MABLAG'LARIDAN OQILONA FOYDALANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI.....	1427
Kasimova Gulyor Axmatovna, Esenbayeva Biybinaz Maxmut qizi	
INNOVATSION MENEJMENT METODOLOGIYASI: NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMIDAGI AHAMIYATI.....	1432
Atamatov Abduxalil Salomovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIGA INVESTITSIYALARNI "CROWD INVESTING" PLATFORMALARI ORQALI JALB ETISH.....	1437
Ibragimov G'anjon G'ayratovich	
TURIZM KLASSTERLARINING EVOLUTSIYASI: AN'ANAVIY MAJMUALARDAN RAQAMLI KLASSTERLARGACHA.....	1441
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi	
IPO O'TKAZISH BOSQICHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI TAHLILI.....	1446
Mamatmurodov Alisher Saparboyevich	



RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KORPORATIV MADANIYATNING ZAMONAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....	1455
Suyunov Dilmurod Xolmuradovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV RESURSLARINI SAMARALI TAQSIMLASHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1463
Amanbaev Amanali Ortazbaevich	
FORECASTING THE EFFICIENCY OF SOLID WASTE RECYCLING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	1467
Axmedov Sheramat Umruxojayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1472
Toxirova Gavxaroy Tolibjon qizi	
PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE INSTITUTIONAL TRANSFORMATION OF ACCOUNTING AND AUDITING SYSTEMS IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1477
Jumanazarov Ruzimurod, Rabbimov Elbek	
TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	1481
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	



TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH YO'NALISHLARI

Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich

i.f.f.d. (PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0006-2728-9264

E-mail: z.tukhtasinov2026@bk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribasi hamda ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlashning institutsional, moliyaviy va huquqiy mexanizmlari yoritilib, ularning bandlikni ta'minlash, hududiy rivojlanishni rag'batlantirish va iqtisodiy faollikni oshirishdagi o'rni asoslab berilgan. Shuningdek, O'zbekistonda mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar baholanib, xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirishning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari ushbu sohani boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, eksport salohiyatini oshirish va aholi bandligini mustahkamlash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, hunarmandchilik, kichik biznes, xorijiy tajriba, institutsional qo'llab-quvvatlash, mahalla, bandlik, eksport salohiyati.

Abstract. This article analyzes the experience of foreign countries in developing entrepreneurship and crafts, as well as the possibilities of its application in the conditions of Uzbekistan. The study highlights the institutional, financial, and legal mechanisms for supporting small businesses and crafts in developed countries and substantiates their role in ensuring employment, stimulating regional development, and increasing economic activity. It also evaluates the reforms being implemented in Uzbekistan to develop entrepreneurship and crafts in mahallas and identifies priority areas for adapting foreign experience to national conditions. The results of the study have significant scientific and practical importance for improving management mechanisms in this sector, increasing export potential, and strengthening employment.

Key words: entrepreneurship, crafts, small business, foreign experience, institutional support, mahalla, employment, export potential.

Аннотация. В данной статье анализируется опыт зарубежных стран в развитии предпринимательства и ремесел, а также возможности его применения в условиях Узбекистана. В исследовании освещаются институциональные, финансовые и правовые механизмы поддержки малого бизнеса и ремесел в развитых странах, обосновывается их роль в обеспечении занятости, стимулировании регионального развития и повышении экономической активности. Также оцениваются реформы, проводимые в Узбекистане по развитию предпринимательства и ремесел в махаллях, и определяются приоритетные направления адаптации зарубежного опыта к национальным условиям. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для совершенствования механизмов управления в данном секторе, повышения экспортного потенциала и укрепления занятости.

Ключевые слова: предпринимательство, ремесла, малый бизнес, зарубежный опыт, институциональная поддержка, махалла, занятость, экспортный потенциал.

KIRISH

Tadbirkorlik va hunarmandchilik iqtisodiy taraqqiyotning muhim drayverlaridan biri bo'lib, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda bandlikni ta'minlash, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish hamda hududiy



iqtisodiy muvozanatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Global iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda innovatsion yondashuvlarning kuchayishi natijasida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va hunarmandchilikni rivojlantirishning zamonaviy modellari shakllanmoqda. Shu nuqtai nazardan, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish hamda ularni milliy sharoitga moslashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Xususan, Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy va Turkiya kabi davlatlarda kichik biznes va hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha institutsional mexanizmlar, moliyaviy rag'batlantirish tizimlari, klasterlashuv hamda eksportga yo'naltirilgan siyosat samarali yo'lga qo'yilgan. Ushbu mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik, innovatsion infratuzilmaning rivojlanganligi hamda kasb-hunar ta'limi tizimining samaradorligi muhim omillar hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida ham tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, ushbu sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator institutsional va huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish, eksport salohiyatini oshirish hamda hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish uchun ilg'or xorijiy tajribalarni chuqur tahlil qilish va ularni milliy iqtisodiyotga moslashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini rag'batlantirish orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda bandlikni ta'minlash borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda ushbu sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini kengaytirish hamda rag'batlantirish yo'nalishida tizimli choralar ko'rilmoqda.

Aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasini yaxshilashda joylarda tashkil etilayotgan tadbirkorlik subyektlarining o'rni muhim hisoblanadi. Mamlakat miqyosida so'nggi yillarda tashkil etilayotgan korxonalar, kichik va o'rta biznes subyektlari hamda oilaviy korxonalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ularning barqarorligini ta'minlashning nazariy va uslubiy asoslari, shuningdek, ularning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari xorijiy iqtisodchi olimlar — J.B. Sey, A. Smit, R. Kantilyon [1], Y. Shumpeter, R. Xizrich [2], P. Druker [3], L. Mizes, F. Xayek, E. Xargadon va boshqalarning asarlarida keng yoritilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati, nazariy asoslari hamda uning hududiy xususiyatlari bo'yicha MDH olimlari — V.M. Vlasova [4], A.M. Samozkin, V.G. Gutman va A.V. Busiginlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy jihatlarini mamlakatimiz iqtisodchi olimlari — M. Sharifxo'jayev, S.S. G'ulomov [5], Yo. Abdullayev [6], A. G'ofurov [7], M.R. Boltabayev [8], B.K. G'oyibnazarov, N.M. Maxmudov, S.K. Salayev [9], O. Kazakov, K. Kurpayanidi, D.S. Alimatova [10], M.M. Ibragimova [11], U. Gafurov [12]larning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda ularni rivojlantirish xususiyatlari keng o'rganilgan. Biroq mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish dinamikasini baholash uchun kompleks ilmiy-uslubiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil hamda iqtisodiy-statistik usullar uyg'unligiga asoslandi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari, rasmiy hisobotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda hududlar kesimidagi amaliy kuzatuv natijalari tashkil etdi. Ma'lumotlar 2023–2025-yillar oralig'ida xo'jalik subyektlarining soni, tarkibi va faoliyat ko'rsatkichlari asosida shakllantirildi.

Tahlil jarayonida dinamik qatorlar usuli orqali korxonalar sonining o'sish sur'atlari va tendensiyalari aniqlandi, strukturaviy tahlil yordamida esa ularning tarmoqlar va hududlar kesimidagi ulushi baholandi. Qiyosiy tahlil usuli asosida turli hududlar (Farg'ona, Andijon va boshqalar) bo'yicha tashkil etilgan hamda faoliyati tugatilgan korxonalar soni solishtirildi. Shuningdek, mahallabay ishlash tizimi samaradorligini baholashda institutsional tahlil usullaridan foydalanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlarining vujudga kelishi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi davlat tomonidan ko'rsatiladigan kompleks qo'llab-quvvatlash choralari orqali ta'minlanadi. Ushbu yo'nalishda mazkur mamlakatlarda katta ijobiy tajriba to'plangan bo'lib, undan milliy sharoit va xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi.

MDH va G'arb mamlakatlari yetakchi mutaxassislarining baholashlariga ko'ra, iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishi uchun aholining har 70–80 kishisiga bitta xo'jalik yurituvchi subyekt to'g'ri kelishi lozim.

AQShda 1953-yildayoq butun mamlakat bo'yicha vakillarning keng tarmog'iga ega bo'lgan Kichik biznes ishlari bo'yicha ma'muriyat tashkil etilgan. Ushbu tashkilotda 3 mingdan ortiq xodim faoliyat yuritadi. Har bir shtatda 30–40 kishidan iborat huquqiy qo'mitalar tashkil etilgan.

Mazkur tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishlari kichik biznes subyektlariga amaliy yordam ko'rsatish, kreditlar va kafolatlangan qarzlarni ajratishdan iborat. Shu bilan birga, xususiy sektorga ko'maklashish, moliyalashtirish va kreditlashni tashkil etish, axborot xizmatlarini ko'rsatish hamda tadbirkorlar malakasini oshirish kabi vazifalar ham amalga oshiriladi. Kichik biznes ma'muriyati (SBA) qariyb 45 milliard AQSh dollari miqdoridagi byudjetga ega bo'lib, uning faoliyati mamlakat Prezidenti tomonidan nazorat qilinadi. Mamlakat ishchi kuchining uchdan ikki qismi ushbu sektorda band.

AQSh iqtisodiyotining yuqori darajada rivojlanganligi sababli bu yerda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar ham boshqa mamlakatlarga nisbatan nisbatan yirik ko'lamga ega.

Rivojlangan davlatlarda kichik biznes subyektlarining eng muhim vazifalaridan biri iqtisodiyotda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish hisoblanadi. Bu borada AQSh qonunchiligida quyidagicha ta'kidlanadi: "Xususiy tadbirkorlik Amerika tizimining asosi bo'lib, uning negizida erkin raqobat yotadi. Faqat to'liq va erkin raqobatgina erkin bozorni, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun teng imkoniyatlarni hamda shaxsiy tashabbusni rivojlantirishni ta'minlaydi. Bunday raqobatni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish nafaqat iqtisodiy farovonlikni, balki milliy xavfsizlikni ham ta'minlaydi. Kichik biznesning mavjud va potensial imkoniyatlarini rivojlantirmasdan turib ushbu maqsadlarga erishish mumkin emas" [12] (1-jadval).

1-jadval. Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes ko'rsatkichlari

Mamlakat	KO'K soni, ming	Har ming kishiga KO'K soni	KO'Kning umumiy bandlikdagi ulushi, %
AQSh	200000	74	69
Yevropa Ittifoqi mamlakatlari	350770	58.0	83
Buyuk Britaniya	2630	56.0	59
Germaniya	3690	48.0	75
Italiya	3920	26.5	73
Fransiya	1980	45.0	65
Yaponiya	6450	49.6	78
Rossiya	866.2	25.8	20.1

Yaponiyada kichik biznes va hunarmandchilik iqtisodiyotning asosiy tayanchi bo'lib, korxonalarining katta qismini tashkil etadi hamda yalpi ichki mahsulotda yuqori ulushga ega. Ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida maxsus boshqarma, davlat korporatsiyalari, assotsiatsiyalar va moliyaviy institutlar faoliyat yuritadi. Davlat tomonidan imtiyozli soliqlar, arzon kreditlar hamda texnologik rivojlanishni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Fransiyada kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimi turli palatalar va konfederatsiyalar orqali tashkil etilgan bo'lib, boshlovchi tadbirkorlar uchun foizsiz kreditlar, subsidiyalar va soliq imtiyozlari taqdim etiladi. Germaniyada 3,6 mln dan ortiq kichik va o'rta korxonalar mavjud bo'lib, ular yalpi ichki mahsulotning qariyb 60 foizini yaratadi. Ushbu mamlakatda kichik biznes subyektlari davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, arzon yer uchastkalari hamda puxta huquqiy baza orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Janubiy Koreyada kichik biznesni rivojlantirish eksportga yo'naltirilgan siyosat asosida olib borilib, maxsus banklar, sug'urta fondlari va mukammal qonunchilik bazasi orqali qo'llab-quvvatlanadi. Italiyada esa "sanoat okruglari" modeli keng rivojlangan bo'lib, kichik korxonalar o'zaro kooperatsiya asosida faoliyat yuritadi va innovatsiyalarni tez jori etish imkoniyatiga ega.



Rossiyada soliq siyosatini takomillashtirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayrim holatlarda soliq yukining yuqoriligi kichik biznes rivojiga ma'lum darajada to'siq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, soddalashtirilgan soliq tizimi joriy etilgan bo'lib, unga muvofiq kichik biznes subyektlari uchun yagona soliq stavkasi daromadning 6 foizini yoki xarajatlar chegirilgan daromadning 15 foizini tashkil etadi. Soliq solish obyekti tadbirkor tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi [12] (2-jadval).

2-jadval. Turli davlatlarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni huquqiy boshqarishda davlatning bosh islohotchilik yo'nalishidagi ahamiyati

AQSH	Angliya	Germaniya	Fransiya	Yaponiya	O'zbekiston
Erkin bozor munosabatlariga asoslangan	Davlat va bozor mexanizmlari uyg'unligiga asoslangan	Ijtimoiy bozor xo'jaligiga asoslangan	Davlat dirijizmi (faol aralashuv) asosida rivojlangan	Ishlab chiqarish faoliyatini kooperativlashtirish ustuvorligiga asoslangan	"Davlat — bosh islohotchi" tamoyili asosida bozor munosabatlarini faollashtirishga yo'naltirilgan

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llaydigan tashkilot qo'shilgan qiymat solig'ining to'lovchisi hisoblanmaydi. Biroq Rossiya Federatsiyasining bojxona hududiga tovarlar olib kirilganda to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i bundan mustasno hisoblanadi.

Bundan tashqari, Rossiyada daromad solig'i uchun 13 foiz miqdorida proporsional (yassi) stavka qo'llaniladi. Shu bilan birga, ijtimoiy soliq regressiv shkala asosida undiriladi. Mazkur tizimga ko'ra, ma'lum darajadan yuqori bo'lgan ish haqi summasiga nisbatan pasaytirilgan stavkalar qo'llaniladi. Bunda eng yuqori stavka 26 foizni tashkil etadi (qishloq xo'jaligi korxonalar uchun — 20 foiz).

Buyuk Britaniyada kichik tadbirkorlik va hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlashning asosiy hukumat dasturlaridan biri Loan Guarantee Scheme hisoblanadi. Ushbu dastur tijorat banklari tomonidan mustaqil ravishda kredit olish imkoniga ega bo'lmagan tadbirkorlik subyektlariga kredit ajratishni qo'llab-quvvatlaydi. Bunda hukumat kredit summasining 70 foizigacha, yuqori xatarli holatlarda esa 85 foizigacha qismini kafolatlaydi. Mazkur kafolatlar bo'yicha foiz stavkasi yiliga 2,5 foizni, yuqori xatarli holatlarda esa 2 foizni tashkil etadi. Natijada, banklar tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kreditlarning 70–80 foizi davlat tomonidan kafolatlanadi. Ushbu kafolatlarni qoplash uchun har yili davlat byudjetidan taxminan 50 mln funt sterling mablag' ajratiladi.

"Mahalliy ahamiyatdagi korxonalar ko'maklashish agentligi" kichik biznesni hududiy qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan bo'lib, 200 ta mustaqil byudodan iborat assotsiatsiya hisoblanadi. Uning "Korxonalar tashkil etishga ko'maklashish sxemasi" dasturi o'z biznesini boshlamoqchi bo'lgan ishsiz fuqarolarga moliyaviy yordam ko'rsatadi. Shuningdek, "Kreditlarni kafolatlash" dasturi doirasida uch yil davomida muvaffaqiyatli faoliyat yuritgan tadbirkorlarga sug'urta mukofotlari taqdim etiladi.

1990-yillardan boshlab Buyuk Britaniya sanoati konfederatsiyasi tomonidan "Tadbirkorlikni kengaytirish dasturi" amalga oshirilmoqda. Ushbu dastur doirasida kichik biznes bilan hamkorlik qiluvchi va uning rivojlanishidan manfaatdor bo'lgan yuridik hamda jismoniy shaxslardan olinadigan maxsus badallar kichik korxonalarini moliyalashtirishning qo'shimcha manbai sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, hududlarda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan, munitsipal hukumat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanadigan hamda yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishga xizmat qiluvchi maxsus dasturlar ham mavjud.

Demak, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beruvchi hamda turli xizmatlarni ko'rsatuvchi infratuzilma obyektiv zarurat bo'lib, u tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish uchun qulay muhitni shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi bandligini oshirish hamda hududiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim omil hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar, xususan AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Buyuk Britaniya tajribasi kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda davlat va xususiy sektor hamkorligi, rivojlangan moliyaviy infratuzilma, imtiyozli kreditlash tizimi hamda samarali huquqiy baza muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu mamlakatlarda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotda katta ulushni egallab, raqobat muhitini shakllantirish, innovatsiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirishda asosiy drayver vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida ham tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, mavjud imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalanish hamda xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish zarurati mavjudligi aniqlandi.



Shu asosda, mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishni yanada jadallashtirish uchun institutsional qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, hududiy markazlar va maxsus agentliklar faoliyatini kengaytirish, kichik biznes subyektlari uchun imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va davlat kafolatlari tizimini rivojlantirish, soliq tizimini optimallashtirish orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, kasb-hunar va tadbirkorlik ta'limini takomillashtirish hamda yoshlarni ushbu sohalarga keng jalb etish muhim hisoblanadi. Shuningdek, hunarmandchilik mahsulotlarini eksportga yo'naltirish, marketing va logistika infratuzilmasini rivojlantirish, hududiy ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish, kichik korxonalar o'rtasida kooperatsiyani kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir. Natijada, ushbu chora-tadbirlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кантилён Р. Основы предпринимательской деятельности. – М.: 1994. – 144 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: 1982. – 230 с.
2. Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство. Вып. 1. – М.: 1998. – 126 с.
3. Друкер П. Управление бизнесом. – М.: Алпина Диджитал, 2016. – 250 с.; Мизес Л. Теория и история: интерпретация социально-экономической эволюции. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001. – 295 с.
4. Власова В.М. Основы предпринимательской деятельности. – М.: Финансы и статистика, 1996. – 106 с.
5. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: 2002. – 256 b.
6. Abdullayev Yo. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari: 100 savolga – 100 javob. – T.: Mehnat, 2002. – 157 b.
7. G'ofurov A. Kichik xo'jalik yurituvchi tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari: monografiya. – Farg'ona, 2008. – 74 b.
8. Boltaboyev M.R., G'oyibnazarov B.K., Otajonov Sh.I. Kichik biznes va tadbirkorlik: o'quv qo'llanma. – T.: 2011. – 43 b.
9. Salayev S.K. Kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va bashoratlash: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2007. – 14 b.
10. Alimatova D.S. Mintaqalarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish: i.f.d. diss. avtoref. – T.: TMI, 2018. – 77 b.
11. Ibragimova M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tarkibiy o'zgarishlar asosida samaradorligini oshirish: i.f.b.f.d. diss. avtoref. – T.: TDIU, 2018. – 54 b.
12. Gafurov U. Kichik biznes korxonalari salmog'ini oshirishning ayrim yo'nalishlari // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – 2004-yil. – № 3. – 15-bet.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
